

Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida SHARTNOMA

O'zbekiston Respublikasi aloqa, axborotlashtirish va telekommunikatsiya texnologiyalari davlat qo'mitasi (hozirgi huquqiy vorisi O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi) tomonidan berilgan 08.09.2014 yildagi AA 0005149 sonli; 08.09.2014 yildagi AA 0005150 sonli; 08.09.2014 yildagi AA 0005151 sonli; 08.09.2014 yildagi AA 0005152 sonli; 08.09.2014 yildagi AA 0005153 sonli litsenziyalar asosida faoliyatini amalga oshiruvchi "Universal Mobile Systems" mas'uliyati cheklangan jamiyati (qisqartirilgan nomi «UMS» MChJ) (keyingi o'rinlarda – Operator), unga murojaat qilgan har bir jismoniy shaxs bilan quyidagi shartlarda mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida ushbu Shartnomani tuzadi:

1. Atamalar va ta'riflar. Talqin

Ushbu Shartnoma bo'limlarining barcha sarlavhalari faqat ulardan foydalanish (ularni o'qish) qulayligini mo'ljallab qo'llanildi va Shartnoma shartlari talqiniga, shuningdek mobil aloqa xizmatlarini (keyingi o'rinlarda – aloqa xizmatlari) ko'rsatish tartibiga hech qanday tarzda ta'sir ko'rsatmaydi.

Ushbu Shartnoma maqsadlari uchun quyidagi atamalar va ta'riflar qo'llanildi:

Abonent – Operator bilan Aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzgan, voyaga yetgan va muomalaga layoqatli har qanday jismoniy shaxs.

O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan voyaga yetmagan shaxslar yoki sud tomonidan muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar o'z qonuniy vakillarining (ota-onalar, asrab oluvchilar, vasiylarning) notarial tasdiqlangan roziliklariga muvofiq Operator bilan Aloqa xizmatlari ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzishlari mumkin.

Abonent qurilmasi – mobil aloqa tarmog'ining elementi hisoblanuvchi, Abonentga aloqa xizmatlaridan foydalanish imkonini beradigan pirovard uskuna.

Abonent qurilmasi O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan standartlarga muvofiq ushbu turdagi uskunalarga qo'yiladigan texnik talablarga javob berishi kerak.

Abonent raqami – Aloqa xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma amal qiladigan davr uchun Operator tomonidan Abonentga ajratiladigan raqam.

Alohida toifadagi abonent raqami – raqamlarning muayyan izchilligi (kombinatsiyasi) bilan ajralib turadigan Abonent raqami bo'lib, u Operator tomonidan raqamlarning har bir toifasi uchun belgilangan tarif bo'yicha qo'shimcha haq evaziga taqdim etiladi.

Abonentga alohida toifadagi abonent raqamini taqdim etish tartibi Operator tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

Alohida toifadagi abonent raqamini taqdim etish tartibi to'g'risidagi batafsil axborot Abonentga Operatorning o'z ofislarida, shuningdek tegishli ma'lumotlarni Operatorning Veb-saytida joylashtirish, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish yo'li bilan, shuningdek Operator maqbul topgan boshqa usullarda yetkaziladi.

Ushbu Shartnoma matnida "Abonent raqami" deyilganda alohida toifadagi abonent raqamlari ham tushuniladi.

AHKT – avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar tizimi (apparat-dasturiy kompleks) bo'lib, u Operator bilan Abonent o'rtasidagi hisob-kitoblar avtomatlashtirilishini ta'minlash, shuningdek ko'rsatilgan Aloqa xizmatlari hisobini yuritish va axborotga ishlov berish uchun mo'ljallangan.

Abonent to'lovi – Tarif rejalarining hamda Alohida xizmatlar to'plamlari va boshqa xizmatlarni ko'rsatish shartlariga muvofiq, Operator tomonidan Abonentdan undiriladigan miqdori qat'iy belgilangan to'lov bo'lib, u Aloqa xizmatlarining foydalanilgan hajmidan qat'i nazar, Operator belgilagan miqdorda va muddatlarda Abonentning Shaxsiy (elektron) hisobvarag'idan chiqarib olinadi.

Aloqa xizmatlaridan foydalanmaslik – Abonentning quyidagi holatlarga olib kelgan passiv faoliyati:

- tarmoq ichida va boshqa operatorlarning raqamlariga chiquvchi qo'ng'iroqlar, shu jumladan roumingda qo'ng'iroqlar amalga oshirilmagan (shoshilinch tezkor xizmatlarga va Operatorning bepul servis raqamlariga qo'ng'iroqlardan tashqari);
- tarmoq ichida va boshqa operatorlarning raqamlariga chiquvchi SMS-xabarlar jo'natilmagan;
- ma'lumotlarni qabul qilish va jo'natish sessiyalari amalga oshirilmagan;
- Abonentning shaxsiy hisobvarag'idan mablag'larni yechish operatsiyalari bajarilmagan.

Bo'nak to'lovi – kelgusidagi hisob-kitob davri uchun Abonent tomonidan to'la hajmda (100%) to'lanishi kerak bo'lgan Aloqa xizmatlari qiymati. Bo'nak to'lovi Abonent tanlagan Tarif rejasiga muvofiq kelgusidagi hisob-kitob davri uchun Abonent to'lovi qiymati, tanlangan pulli Aloqa xizmatlari qiymati, jumladan Alohida xizmatlar to'plami qiymatidan shakllanadi.

Aloqa xizmatlari uchun Hisob-kitob davri Tarif rejalarining shartlari, Alohida xizmatlar to'plamlari va boshqa Aloqa xizmatlarining shartlari, Alohida toifadagi abonent raqamini taqdim etish shartlari bilan belgilanadi.

To'lov kartasini faollashtirish – Abonent Operator belgilagan xatti-harakatlarni amalga oshirishi yo'li bilan To'lov kartasidagi nominalni Abonentning Shaxsiy (elektron) hisobvarag'iga o'tkazish jarayoni.

Operatorning Veb-sayti – Operatorning www.ums.uz elektron manzilida joylashgan axborot resursi.

Shartnoma – Abonent bilan Operator o'rtasida tuziladigan, shartlari Abonent Ro'yxatga olish blankini imzolashi orqali akseptlanadigan mobil Aloqa xizmatlari ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma bo'lib, uning shartlari quyidagi hujjatlarda belgilab qo'yilgan:

- Ommaviy oferta sifatida Operatorning saytida joylashtiriladigan, Operator bilan Abonent o'rtasidagi o'zaro munosabatlar shartlari qamrab olingan ushbu Shartnoma. Ommaviy oferta shartlari Operator tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi va Abonent tomonidan ularga to'la-to'kis rozilik berish yo'li bilangina qabul qilinadi;

- Abonentga abonent raqami berilayotganda u yozma shaklda to'ldiriladigan hamda Abonent tanlagan tarif rejasi va u Shartnoma shartlarini qabul qilganligi qayd etiluvchi Ro'yxatga olish blanki;

- Abonent tomonidan mustaqil ravishda tanlanadigan tarif rejasi.

Ro'yxatga olish blanki, Tarif rejalarining shartlari, shuningdek Alohida xizmatlar to'plamlari va boshqa Aloqa xizmatlarini taqdim etish shartlari va tartibi, jumladan Alohida toifadagi abonent raqamlarini berish shartlari va tartibi Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

To'lov kartasi – Aloqa xizmatlari uchun Dastlabki bo'nak to'lovi va Bo'nak to'lovini Operator foydasiga amalga oshirish vositasi bo'lib xizmat qila oladigan to'lov vositasi. To'lov kartasi qat'iy belgilangan summa (nominal)ga ega bo'lib, u faollashtirilgach, mazkur summa undan to'liq yechib olinadi. To'lov kartasidagi summa, To'lov kartasining seriya raqami va To'lov kartasining PIN-kodi (o'nli raqamlar izchilligi), To'lov kartasining amal qilish muddati kartada ko'rsatilgan bo'ladi.

Kontent – Abonentning so'rovi asosida SMS, GPRS orqali olingan, axborot, ko'ngilochar yoki boshqa tUSDagi matnli yoxud multimedia ma'lumotlari.

Kontent-provayder – Operator tarmog'i orqali Abonentlarga tijorat asosida kontent xizmatlarini ko'rsatuvchi yuridik shaxs. Kontent-provayderlar hamda ular ko'rsatadigan Kontent xizmatlari ro'yxati Operatorning veb-saytida, shuningdek Kontent-provayderlarning veb-saytlarida bor.

Maxfiy so'z – Abonentning harflar va/yoki raqamlarning muayyan ketma-ketligidan iborat Shaxsiy paroli bo'lib, Abonent telefon orqali Operatorning Ma'lumot-axborot bo'limiga murojaat qilganda uning shaxsini tasdiqlovchi guvohnoma vazifasini bajaradi.

Shaxsiy (elektron) hisobvaraqa – Operatorning avtomatlashtirilgan hisob-kitoblar tizimidagi tafsiliy elektron hujjat bo'lib, Abonent foydalanilayotgan xizmatlar haqini to'lashi uchun mo'ljallangan. Unda Aloqa xizmatlaridan foydalanish davomida Abonent to'lagan va sarflagan pul mablag'lari to'g'risidagi axborot pul ekvivalentida saqlanadi.

Abonent to'lagan pul mablag'larini va ular yechib olinishini Shaxsiy (elektron) hisobvaraqa aks ettirish tartibi Operator tomonidan belgilanadi.

Alohida xizmatlar to'plami – Tarif rejasi tarkibiga kirmagan muayyan hajmdagi Aloqa xizmatlari.

Operator ofisi – Operator Abonentlarni qabul qiladigan va ularga xizmat ko'rsatadigan, abonentlarga oid ma'lumotlar bazasi hamda Operatorning faoliyati bilan bog'liq barcha hujjatlar saqlanadigan va ishlov beriladigan xona, bino. Operatorning bosh ofisi va uning O'zbekiston Respublikasi viloyatlaridagi Xizmat ko'rsatish markazlari joylashgan manzil, ularning ish vaqti to'g'risidagi axborot Operatorning Veb-saytida

ko'rsatiladi va zarurat bo'lishiga qarab (masalan, joylashgan manzil o'zgargan va boshqa hollarda), belgilangan tartibda yangilab boriladi.

Operator vakolat bergan tijorat vakilining ofisi – mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida Operator nomidan Shartnomalar tuzish, shuningdek o'ziga berilgan huquqlarga muvofiq boshqa harakatlarni amalga oshirish uchun belgilangan tartibda Operator tomonidan vakolat berilgan, yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan uchinchi shaxsning savdo nuqtasi.

Dastlabki bo'nak to'lovi – ushbu Shartnoma imzolanganidan keyin Operator Aloqa xizmatlarini ko'rsata boshlashi uchun Abonent tomonidan to'la hajmda (100%) to'lanishi kerak bo'lgan Aloqa xizmatlari qiymati.

Dastlabki bo'nak to'lovi Operator tarmog'iga kirish imkoniyatini berish qiymati, Abonent tanlagan tarif rejasiga muvofiq birinchi hisob-kitob davri uchun Abonent to'lovi qiymati va tanlangan pulli Aloqa xizmatlari qiymatidan tarkib topadi.

Aloqa xizmatlari uchun hisob-kitob davri Tarif rejalarining shartlari, Alohida xizmatlar to'plamlarining va boshqa Aloqa xizmatlarining shartlari, Alohida toifadagi abonent raqamini berish shartlari bilan belgilanadi.

Alohida toifadagi abonent raqami berilgan hollarda dastlabki bo'nak to'loviga alohida toifadagi abonent raqamining qiymati ham qo'shiladi.

Alohida toifadagi abonent raqami uning haqini qismlarga bo'lib to'lash sharti bilan berilgan hollarda birinchi hisob-kitob davri uchun abonent to'lovi (oylik abonent to'lovi bo'yicha birinchi oy uchun abonent to'lovi) ham dastlabki bo'nak to'loviga qo'shiladi.

Operator qabul qilinadigan to'lovning eng kam miqdorini belgilash huquqiga ega.

Operator tarmog'iga kirish imkoniyatini berish – Abonentning Shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish va ularni Operatorning apparat-dasturiy kompleksiga kiritish borasida Operator tomonidan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar. Abonent Dastlabki badal to'lovini amalga oshirganidan keyin Operator tarmog'iga kirish imkoniga ega bo'ladi.

Radiotelefon orqali ulanish davomiyligi – bu, Operator apparaturasi chaqirilayotgan tomonning javobini aniqlagan lahzadan, toki Operator apparaturasi tomonlardan biri radiotelefon aloqasini uzganligini aniqlagan lahzagacha o'tgan vaqt oralig'i.

Radiotelefon orqali ulanish – birining foydalanuvchisi Abonent bo'lgan ikki abonent qurilmasi o'rtasida axborot almashish imkoniyatini ta'minlovchi radiotelefon aloqasi o'rnatilishi.

Rouming (Roaming) – Abonent O'zbekiston Respublikasidan tashqarida, boshqa mamlakatda bo'lganida Abonent Operator tarmog'ida dastlabki ro'yxatdan o'tgan ma'lumotlar majburiy tartibda saqlangan holda u boshqa mobil (uyali) aloqa operatori tarmog'iga kirishini ta'minlovchi Aloqa xizmati (xalqaro rouming). Operatorning rouming-hamkorlari to'g'risidagi ma'lumot, rouming xizmatlarini ko'rsatish shartlari Operator ofislarida va/yoki Operator Veb-saytida saqlanadi.

Ro'yxatga olish blanki – Shartnomaning ajralmas qismi bo'lib, unda Abonent Shartnoma shartlari bilan tanishganligi belgilab qo'yiladi hamda Abonent ushbu Shartnomaning shartlarini to'la-to'kis va so'zsiz qabul qilganligini tasdiqlaydi. Ro'yxatga olish blankida Abonent to'g'risidagi ma'lumotlar, Abonentga berilgan abonent raqami, Abonent tanlagan Tarif rejasi va Aloqa xizmatlari ro'yxati, to'lovnomani yetkazib berish usuli hamda Shartnomaning boshqa muhim shartlari qayd etiladi.

Ro'yxatga olish blanki Operator Abonentga SIM-kartani berganligini tasdiqlovchi hujjat ham hisoblanadi.

Ro'yxatga olish blanki Abonentga berilgan har bir raqam bo'yicha rasmiylashtiriladi.

Operator tarmog'i – Abonentga Aloqa xizmatlarini taqdim etishda yordam beruvchi texnik vositalar majmui (kommutatsiya va radio uskunalari, abonent qurilmalari, ulanish liniyalari, inshootlari va h.k.).

Tarif – Aloqa xizmatining o'lchov birligi uchun Operator tomonidan belgilanadigan narx.

Tarif rejasi – narxlarga oid shartlar majmui bo'lib, Operator ular asosida bir yoki bir nechta Aloqa xizmatlaridan foydalanishni taklif qiladi.

Aloqa xizmatlarini ko'rsatishga oid texnik imkoniyat – Operatorning xizmat ko'rsatish zonasida Abonentga Aloqa xizmatlarini ko'rsatish uchun zarur ishlab turgan texnik aloqa vositalari va inshootlari mavjudligi.

Operator tarmog'iga kirish uchun ruxsat berish borasidagi texnik imkoniyat – Operatorning raqam sig'imida bo'sh raqamlar va/yoki aloqa kanallari, shu jumladan, mavjud radiochastota resursini hisobga olgan holda radiokanallar mavjudligi.

Aloqa xizmatlari – Operator Tarmog'iga kirish imkoniyatini berish, radiosignallar yoki ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va jo'natish borasida tasdiqlangan va amalda bo'lgan Tariflarga va (yoki) Tarif rejalariga muvofiq Operator tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar, shuningdek Operator o'zining xizmat ko'rsatish avtomatik tizimidan foydalangan holda Abonentga ko'rsatadigan boshqa xizmatlar.

Operator Aloqa xizmatlari ro'yxatini Operator Tarmog'ining Texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda mustaqil ravishda belgilaydi.

Abonentning shaxsini tasdiqlovchi hujjat – O'zbekiston Respublikasi fuqarosining pasporti, xorijiy davlat fuqarosining pasporti, fuqaroligi yo'q shaxsning guvohnomasi, harbiy xizmatchining pasport ma'lumotlarini va u ro'yxatdan o'tgan manzilni tasdiqlovchi belgilangan shakldagi ma'lumotnoma ilova qilingan harbiy bilet.

GPRS (General Packet Radio Service) – ma'lumotlarni radiokanal orqali to'plam tarzida jo'natish aloqa xizmati.

SMS (Short Message Service) – Abonentga qisqa matnli xabarlarni Abonent qurilmasi orqali (undan foydalangan holda) yuborish va olish imkonini beruvchi Aloqa xizmati.

SIM-karta (Subskriber Identity Module) – mikrosxema o'rnatilgan identifikatsiya moduli bo'lib, uning yordamida Abonent qurilmasi identifikatsiyalanishi, u mobil aloqa tarmog'iga kirishi, shuningdek abonent raqamidan ruxsatsiz foydalanishdan himoya ta'minlanadi. SIM-karta turli Abonent qurilmalariga o'rnatilganida Abonentning tarmoqdagi barcha qaydlari va unga berilgan Abonent raqami saqlanib qoladi.

SIM-karta bilan bajarilgan barcha xatti-harakatlar Abonent nomidan amalga oshirilgan hisoblanadi.

GSM-shluz – ko'p yoki bitta kanalli mobil qurilma. U umumiy foydalanishdagi statsionar tarmoqqa, mobil operator tarmog'iga yoki VoIP tarmog'i (Internet)ga ulanadi hamda har qanday kiruvchi qo'ng'iroqlarni aloqa operatorlarining texnik qurilmalari va uskunalaridan foydalanmasdan, GSM-shluz kanallarining biri orqali aloqa tarmoqlari orasida bevosita qayta yo'naltirish va tarmoq ichidagi chaqiruv sifatida narxlash imkonini beradi.

2. Shartnoma predmeti

2.1. Operator o'z tarmog'ining texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda Abonentga Aloqa xizmatlarini ko'rsatish majburiyatini oladi, Abonent esa, Aloqa xizmatlari haqini Shartnomada belgilangan shartlarda va tartibda to'lash majburiyatini oladi.

2.2. Aloqa xizmatlari ko'rsatish uchun Abonentga Ro'yxatga olish blankida (Ro'yxatga olish blanklarida) ko'rsatilgan abonent raqami (raqamlari) beriladi.

2.3. Tarif rejalarining shartlari, Alohida xizmatlar to'plamlarini va boshqa xizmatlarni taqdim etish shartlari va tartibi, shu jumladan, Alohida toifadagi Abonent raqamini berish shartlari va tartibi Operator tomonidan belgilanadi hamda Operator ofislarida, Operator Veb-saytida va/yoki ommaviy axborot vositalarida ma'lum qilinadi.

3. Shartnomani tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi

3.1. Shartnoma tuzish uchun Abonent Operatorga o'zining shaxsini tasdiqlovchi guvohnomasini taqdim etadi.

Abonent uning Shaxsiy ma'lumotlariga Operator ishlov berishi, shuningdek bu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda uchinchi shaxslarga, shu jumladan huquqni qo'llash funksiyalari bilan shug'ullanuvchi shaxslarga berilishiga (tarqatilishi, taqdim etilishi, ko'rsatilishiga) rozilik bildiradi.

Operator o'zining dasturiy-apparat vositalaridan foydalangan holda Abonent ma'lumotlariga ishlov beradi.

Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish deganda Abonentning Shaxsiy ma'lumotlari bilan amalga oshiriladigan xatti-harakatlar (operatsiyalar), jumladan Shaxsiy ma'lumotlarni, xususan shaxsni tasdiqlovchi hujjatlarning nusxalarini to'plash, tizimga solish, yig'ish, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), chiqarib olish, foydalanish, shaxssizlantirish, bandlash va yo'q qilish tushuniladi.

Shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berish ishlari Shartnomani bajarish maqsadida, jumladan Abonentga xizmat ko'rsatish, Aloqa xizmatlari bo'yicha debitorlik qarzlarini undirish, Ro'yxatga olish blanklari va boshqa shartnomaviy hujjatlarni saqlash uchun hamda Shartnomani bajarish bilan, shuningdek Operator amaldagi qonun hujjatlari talablariga rioya etishi bilan uzviy bog'liq boshqa maqsadlarda amalga oshiriladi.

3.2. Abonent bilan Operator o'rtasida Aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma Operator Ofislarida yoki Operator vakolat bergan tijorat vakillarining Ofislarida, Taraflar Ro'yxatga olish blankini imzolashi yo'li bilan tuziladi.

Taraflar Ro'yxatga olish blankini imzolagan vaqt mazkur Shartnoma imzolangan vaqt hisoblanadi.

Ro'yxatga olish blankini imzolash bilan Abonent quyidagilarni tasdiqlaydi:

a) Operator bilan Shartnomani ixtiyoriy ravishda, to'la-to'kis tuzayotganligi hamda uning barcha shartlarini biron-bir chegirishlar va/yoki cheklovlarsiz batamom qabul qilayotganligi;

b) Ro'yxatga olish blankida ko'rsatilgan Tarif rejasining shartlari, shuningdek Alohida xizmatlar to'plamlari yoki boshqa Aloqa xizmatlarining shartlari, jumladan Alohida toifadagi abonent raqamini berish shartlari va tartibi bilan tanishganligi hamda ularga roziligini bildiradi.

3.3. Dastlabki bo'nak to'lovi 7 (yetti) kalendar kun mobaynida kiritilmasa, bu holat Abonent Shartnomani rad etganligini bildiradi.

Basharti Dastlabki bo'nak to'lovi belgilangan muddat mobaynida to'liq hajmda kiritilmagan bo'lsa, qisman kiritilgan summa ushbu Shartnomaning 7.12-bandida ko'zda tutilgan tartibda qaytarib beriladi.

3.4. Shartnoma shartlariga o'zgartishlar Operator tomonidan bir tomonlama tartibda, tegishli axborotni Operatorning Veb-saytida joylashtirish, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish yo'li bilan, shuningdek Operatorga maqbul boshqa usullarda kiritiladi.

Abonent to'g'risidagi ma'lumotlar o'zgargani munosabati bilan Shartnomaga o'zgartishlar Operator tomonidan qo'shimcha haq undirmasdan kiritiladi.

3.5. Abonent Shartnomani o'zi istagan vaqtda bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli. Lekin Abonent bu haqda Operatorni kamida 10 (o'n) ish kuni oldindan xabardor qilishi hamda Aloqa xizmatlari uchun Operator oldidagi mavjud qarzni uzishi shart.

3.6. Operator quyidagi hollarda Shartnomani bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli:

a) Abonent Bo'nak to'lovini Aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'xtatilgan sanadan boshlab surunkasiga 60 (oltmish) kun mobaynida amalga oshirmaganda (qarzni so'ndirmaganda);

b) ijro uchun imkoniyat bo'lmaganda (Operator tarmog'iga kirish imkonini berishning yoki Abonent so'ragan Aloqa xizmatlarini ko'rsatishning Texnik imkoniyatidan maxrum bo'linganda);

v) Abonent Shartnomada belgilangan Aloqa xizmatlaridan, xususan GSM-shluzlardan foydalanish qoidalarini buzganda. Bunda Abonent Operatorga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladi;

g) Abonent vafot etganda;

d) davlat organining hujjati qabul qilinib, buning oqibatida Taraflar o'z majburiyatlarini bajarishlari imkonsiz bo'lib qolganda;

e) Abonent Aloqa xizmatlaridan surunkasiga 60 (oltmish) kalendar kun mobaynida foydalanmaganda;

yo) ushbu Shartnomada va (yoki) qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa hollarda.

3.7. Shartnoma bekor qilingan vaqtdan boshlab, Taraflarning majburiyatlari amaldan to'xtatilgan hisoblanadi, faqat Shartnoma bekor qilingan vaqtgacha ko'rsatilgan, lekin haqi to'lanmagan Aloqa xizmatlarining haqini to'lash borasidagi Abonent majburiyatlari bundan mustasno.

4. Aloqa xizmatlarini ko'rsatish tartibi

4.1. Aloqa xizmatlarini ko'rsatish borasidagi Operatorning majburiyati Shartnoma imzolanib, Abonent dastlabki bo'nak to'lovini kiritganidan keyin yuzaga keladi.

Keyinchalik, Abonent bo'nak to'lovlari o'z vaqtida va to'la hajmda kiritgan taqdirda, Operator Abonentga Aloqa xizmatlarini ko'rsatishga majbur.

4.2. Abonentga ko'rsatiladigan Aloqa xizmatlari ro'yxati Abonent tomonidan tanlangan hamda Operator va (yoki) uchinchi shaxslarning amaldagi takliflariga muvofiq Abonent qo'shimcha ravishda buyurtma bergan boshqa Xizmatlar, shuningdek Ro'yxatga olish blankida ko'rsatilgan va yangi ulanish chog'ida avtomatik tarzda faollashadigan, tariflanmaydigan qo'shimcha xizmatlar hisobga olingan Tarif rejasini bilan belgilanadi.

Aloqa xizmatlarining ro'yxati Abonent qurilmasining imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi.

Roumingdagi aloqa xizmatlarining ro'yxati ham rouming operatori tarmog'ining imkoniyatlariga bog'liqdir.

4.3. Abonent Aloqa xizmatlaridan foydalanishi uchun unda Abonent qurilmasi bo'lishi kerak. Bunda Operator Abonentga Abonent qurilmasini taqdim etishga majbur emas, shuningdek uning Abonent qurilmasini, apparat va dasturiy ta'minotini sozlash borasida xizmatlar ko'rsatmaydi.

4.4. Operator Shartnoma amal qiladigan davr uchun Abonentga Operator tarmog'iga kirish imkoniyatini ta'minlay oladigan Abonent raqami yoki Alohida toifadagi abonent raqamini va SIM-kartani taqdim etadi.

Abonentga berilgan Abonent raqami Ro'yxatga olish blankida ko'rsatiladi.

4.5. Aloqa xizmatlari Operator tomonidan har kuni, kecha-yu kunduz (sutkasiga 24 soat), tanaffuslarsiz ko'rsatiladi, faqat zarur profilaktika va ta'mirlash ishlari bajariladigan vaqtlar bundan mustasno.

Quyidagi holatlar Aloqa xizmatlarini ko'rsatishdagi tanaffus va (yoki) Aloqa xizmatlari ko'rsatishning belgilangan muddatlarini buzish hisoblanmaydi:

a) profilaktika va ta'mirlash ishlari olib boriladigan, shuningdek yirik avariya yuz bergan hamda ularning oqibatlarini bartaraf etishga sarflanadigan vaqt;

b) Abonent qurilmasidagi, boshqa operatorlar tarmog‘i uskunalaridagi (shu jumladan shahar telefon tarmog‘idagi) nosozliklar.

Operator tarmog‘ida yirik avariya yuz berib, buning oqibatida Aloqa xizmatlarini ko‘rsatish to‘xtab qolgan hollarda Operator Abonentga bu haqda, shuningdek Aloqa xizmatlari qachon yana ko‘rsatila boshlanishi to‘g‘risida ommaviy axborot vositalari orqali yoki Operatorning veb-saytida tegishli axborotni joylashtirish yo‘li bilan xabar berishi shart.

4.6. Abonentga O‘zbekiston Respublikasi hududida belgilangan yagona raqamlarni terish orqali (jumladan raqam bloklangan vaqtda ham) kecha-kunduz istalgan vaqtda shoshilinch tezkor xizmatlarni bepul chaqirish imkoniyati ta‘minlanadi. Bu raqamlar:

- 101 – o‘t o‘chirish xizmati;
- 102 – militsiya;
- 103 – tez tibbiy yordam;
- 104 – gaz tarmog‘i avariya xizmati;
- 1050 – O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi;
- 112 – yagona shoshilinch xizmat.

4.7. Operatorning Aloqa xizmatlari sifati O‘zbekiston Respublikasida amalda bo‘lgan texnik normalarga mos keladi hamda Operatorga berilgan litsenziyalar talablariga javob beradi..

4.8. Abonentga ko‘rsatiladigan Aloqa xizmatlari, Operator tarmog‘ining konstruktiv xususiyatlari sababli, Operatorning vakolatlari doirasidan tashqarida bo‘lgan mahalliy simli telefon liniyalari operatorlarining uskunalari, xalqaro va shaharlararo aloqa operatorlarining uskunalari sifatiga bog‘liqdir.

4.9. Abonent maxfiy so‘zni aytib, Operatorning Ma‘lumot-axborot bo‘limidan ma‘lumot olishga haqli. Abonent Maxfiy so‘zni aytganida Operator unga xizmat ko‘rsatish protsedurasi to‘g‘risida to‘liq ma‘lumot berish majburiyatini oladi.

4.10. Quyidagi holatlar oqibatida aloqa sifati yomonlashsa yoki aloqa uzilsa, buning uchun Operator javobgar bo‘lmaydi:

a) radioto‘lqinlar tabiiy tarzda tarqalishi va ustma-ust kelib qolishi;

b) Abonent elektr uzatish liniyalari, binolar yaqini yoki ichida, yer osti yo‘llarida, yerto‘lalarda va boshqa yer osti inshootlarida turishi;

v) relyef va qurilishlarning mahalliy xususiyatlari;

g) mahalliy simli telefon liniyalari operatorlari hamda xalqaro va shaharlararo aloqa operatorlariga tegishli uskunalarning texnik tavsiflari va holati, meteorologik shart-sharoit ta‘sirida;

d) Abonent nosoz (belgilangan talablarga javob bermaydigan) Abonent qurilmasidan yoki amaliy dasturiy ta‘minotdan, ishlab chiqaruvchi yoxud Operator bilan kelishmasdan o‘zgartirilgan yoki modifikatsiyalangan yoxud sozlanishi Operator tavsiyalariga mos kelmaydigan Abonent qurilmasidan foydalanishi;

e) Operator bilan kelishmasdan o‘zgartirilgan (almashtirilgan, modifikatsiyalangan) SIM-kartadan foydalanishi;

yo) Operator ta‘sir ko‘rsata olmaydigan yoxud oldindan bilolmaydigan boshqa sabablar tufayli, shu jumladan ushbu Shartnomaning 4.7-bandida ko‘zda tutilgan hollarda.

4.11. Operator Abonentning so‘rovi asosida Kontent-provayder tomonidan Operator tarmog‘i orqali tarqatiladigan Kontentning sifati (taqdim etilmasligi, o‘z vaqtida yetib bormasligi va mazmuni) uchun javob bermaydi.

Operator uchinchi taraf yetkazib bergan va Operator tomonidan tavsiya qilinmagan amaliy dasturiy ta‘minot to‘g‘ri ishlashini kafolatlamaydi, “Internet” tarmog‘ida o‘rnatilgan ma‘lumotlar serverlarining doimiy ishlashi hamda Abonent qurilmasidagi amaliy dasturiy ta‘minot bunday serverlarning dasturiy ta‘minoti bilan uyg‘unlikda ishlashi uchun javob bermaydi.

4.12. Abonent Aloqa xizmatlaridan Shaxsiy maqsadlaridagina foydalanishi shart. Bunda Abonentga quyidagilar taqiqlanadi:

a) Abonent raqami yoki Alohida toifadagi abonent raqamidan lotereyalar, ovoz berishlar, tanlovlar, viktorinalar, reklama, so‘roqlash tadbirlari, ommaviy xat jo‘natishlarda, qat‘iy belgilangan aloqa, Internet-telefoniya tarmoqlariga kirish shuluzlarini o‘rnatishda hamda Abonent uskunasi va/yoki aloqa qurilmalarining ish qobiliyati buzilishiga olib keluvchi boshqa tadbirlarni o‘tkazishda foydalanish;

b) Operator tarmog‘iga ulangan SIM-kartadan foydalanish huquqini uchinchi shaxslarga berish, jumladan GSM-shluzlar orqali va/yoki unga bir yoxud bir nechta telefon apparatini ulash imkonini beruvchi boshqa qurilmalar yoki tashqi mini-ATS liniyasi orqali ulanish imkoniyatini berish;

v) o‘zining Abonent qurilmasidan dasturiy ta‘minotni tarqatish, IP-manzillarni hamda abonent raqamlarini soxtalashtirish maqsadida Aloqa xizmatlaridan foydalanish, Operator tarmog‘i, Operator va/yoki

Operator bilan bog‘liq uchinchi shaxslarning uskunalari, dasturiy ta‘minoti normal ishlashiga to‘sqinlik qiluvchi xatti-harakatlarni sodir etish, bevosita Aloqa xizmatlaridan tijorat maqsadlarida, GSM-shluzlarda va qat‘iy belgilangan aloqa tarmog‘iga, Internet-telefoniyaga kirish shluzlarida foydalanish.

SIM-kartadan uchinchi shaxslar yoki Abonent bilan o‘zaro bog‘liq shaxslar foydalanganligi Abonentni Shartnoma bo‘yicha javobgarlikdan ozod qilmaydi;

g) Shartnoma bo‘yicha o‘z huquq va majburiyatlarini Operatorning roziligisiz uchinchi shaxslarga berish (ular foydasiga voz kechish).

5. Operatorning huquq va majburiyatlari

5.1. Operator quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1. Yangi Tarif rejaları (Xizmatlar)ni joriy etish va (yoki) Xizmatlar ko‘rsatish (Tariflar)ning amaldagi shartlariga ushbu Shartnomada ko‘zda tutilgan tartibda o‘zgartishlar kiritish orqali Aloqa xizmatlari ko‘rsatishning, shu jumladan Tarif rejalarining shartlarini belgilash.

5.1.2. Abonent Shartnoma shartlarini, jumladan Aloqa xizmatlari haqini to‘lash muddatlarini buzgan hollarda, Abonent GSM-shluzlardan foydalanayotgani belgilarini mustaqil ravishda yoki boshqa operatorlarning ma‘lumotlari asosida aniqlagan taqdirda Aloqa xizmatlari ko‘rsatilishini to‘xtatib qo‘yish. Aloqa xizmatlarini ko‘rsatish bu xizmatlar haqini to‘lash muddatlari buzilgani uchun to‘xtatib qo‘yilgan bo‘lsa, Abonentning shaxsiy hisobvarag‘ida salbiy balans yuzaga kelgan vaqtdan boshlab 60 kalendar kun mobaynida qarz uzilgan taqdirda Aloqa xizmatlari yana taqdim etila boshlanadi.

5.1.3. Abonentning Shaxsiy (elektron) hisobvarag‘idagi mavjud pul mablag‘larini Abonentning boshqa barcha Shaxsiy (elektron) hisobvaraqlaridagi qarzdorlikni so‘ndirish uchun chiqarib olish.

5.1.4. Radiotelefon orqali ulanishning maksimal davomiyligini belgilash (cheklash).

5.2. Operatorning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

5.2.1. Ushbu Shartnoma amal qiladigan davr uchun Abonentga Abonent raqami yoki Alohida toifadagi Abonent raqami va SIM-karta berish.

5.2.2. Abonentga sifati vakolatli organlar belgilaydigan parametrlarga (ulanish, ma‘lumot jo‘natish, aloqani uzish borasida), shuningdek Operator tarmog‘ida qo‘llaniladigan standart texnik normalariga mos keluvchi Aloqa xizmatlarini ko‘rsatish.

5.2.3. Abonent O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgan vaqtda unga Aloqa xizmatlarini ko‘rsatish.

5.2.4. Abonentga Operator ko‘rsatadigan Aloqa xizmatlari haqida to‘g‘ri axborot berish.

5.2.5. Aloqa xizmatlari ko‘rsatilishi davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish.

5.2.6. Abonentga qonunchilikda ko‘zda tutilgan tartibda axborot-ma‘lumot xizmatlarini ko‘rsatish.

5.2.7. Operator O‘zbekiston Respublikasining va xorijiy davlatlarning boshqa aloqa operatorlari bilan tegishli Shartnomalar tuzgan bo‘lsa, Abonentga bu tarmoqlar abonentlari bilan radiotelefon orqali ulanishni ta‘minlash. Ushbu shart faqat Abonent mazkur xizmatni mustaqil faollashtirgan taqdirda yoki agar bu xizmat Abonent tanlagan Tarif rejasiga kiritilgan bo‘lsa, kuchga egadir.

5.2.8. Aloqa xizmatlari haqi to‘lanmagani uchun Operator tarmog‘idan uzib qo‘yilgan Abonentni uning shaxsiy hisobvarag‘ida salbiy balans yuzaga kelgan vaqtdan boshlab 60 kalendar kun ichida foydalanilgan Aloqa xizmatlari haqini to‘lashga doir qarzlarni tugatilib (so‘ndirilib), Abonent tanlagan Tarif rejasiga muvofiq miqdorda bo‘nak to‘lovi kiritilgach, Operator tarmog‘iga ulash.

5.2.9. Abonentning Shaxsiy ma‘lumotlarini himoyalash choralarini ko‘rish hamda Abonent to‘g‘risidagi ma‘lumotlar maxfiyligini ta‘minlash borasida qonun hujjatlarida belgilangan boshqa talablarga rioya etish.

5.2.10. Abonentga shoshilinch tezkor xizmatlarni kecha-kunduz bepul chaqirish imkonini berish, shuningdek mobil aloqa tarmog‘i qo‘llanilayotgan standartning texnik normalariga muvofiq radioqamrov hududida ishlashini ta‘minlash.

Tarmoqning radioqamrov hududi, bu – Aloqa xizmatlari ko‘rsatishning texnik imkoniyatlari mavjudligi Operator tomonidan tasdiqlangan hududdir.

6. Abonentning huquq va majburiyatlari

6.1. Abonent quyidagi huquqlarga ega:

6.1.1. Mazkur Shartnoma shartlariga binoan Aloqa xizmatlaridan foydalanish.

6.1.2. Operator ofislari va u vakolat bergan tijorat vakillarining ofislari, ularning ish vaqti va Operator ko‘rsatadigan Aloqa xizmatlari to‘plami haqidagi zarur va to‘g‘ri ma‘lumotlardan foydalanish.

6.1.3. Tarif rejasini, ko‘rsatilayotgan Aloqa xizmatlari ro‘yxatini Operatorning texnik imkoniyatlarini hisobga olgan holda, Operator belgilagan tartibda o‘zgartirish.

6.1.4. Operator tarmog'iga ulanishda, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida, ushbu Shartnomada belgilangan shartlar va tartibda, Operator talablariga muvofiq tarzda Abonent qurilmasidan foydalanish.

6.1.5. O'ziga Aloqa xizmatlari ko'rsatishni to'xtatish to'g'risida Operatorni o'z tashabbusi bilan xabardor qilish.

6.1.6. O'z huquqlarini shaxsan o'zi yoki qonunga muvofiq yoxud qonunda belgilangan tartibda tasdiqlangan ishonchnoma asosida ish olib boruvchi o'z vakili orqali amalga oshirish.

Abonentning SIM-kartasi qo'yilgan Abonent qurilmasi vositasida amalga oshirilgan barcha xatti-harakatlar Abonent nomidan sodir etilgan hisoblanadi.

6.2. Abonentning majburiyatlari quyidagilardan iborat:

6.2.1. Aloqa xizmatlaridan foydalana boshlashdan oldin Aloqa xizmatlarining dolzarb ro'yxati, Tarif rejaları, Aloqa xizmatlari uchun tariflar (shu jumladan Roumingdan foydalanganda qo'llaniladigan Aloqa xizmatlari tariflari) va boshqa qo'shimcha ma'lumotlar bilan tanishish.

6.2.2. O'zbekiston Respublikasida belgilangan standartlarga javob beradigan Abonent qurilmasidan uni ishlab chiqaruvchining foydalanish bo'yicha yo'riqnomasiga muvofiq foydalanish. Bunda quyidagilar hisobga olinishi kerak:

a) muayyan hududda (aeroport, samolyot, antenna maydoni, metropoliten va h.k.) amalda bo'ladigan alohida farmoyishlar va qoidalar;

b) halal beruvchi shovqin yoki xavfli vaziyat yuzaga kelishi ehtimoli bor holatlardagi (tibbiyot muassasalari, texnik xizmat ko'rsatish stansiyalari, yonilg'i saqlanadigan va ortiladigan hududlar, portlash ishlari olib borilayotgan joylar va h.k.) cheklovlar.

Operator bu cheklovlar va talablar to'g'risida Abonentni xabardor qilishga majbur emas.

6.2.3. Abonent ma'lumotlarini (familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy va/yoki vaqtincha yashash joyi, pasport yoki pasport o'rniga berilgan boshqa hujjat seriyasi va raqami) identifikatsiyalash maqsadida Abonent Operatorga o'zining shaxsni tasdiqlovchi amaldagi guvohnomasini ko'rsatishi shart.

6.2.4. Aloqa xizmatlari haqini Shartnoma shartlariga binoan hisob-kitoblarning amaldagi tartibi, tanlangan Tarif rejasi, Alohida xizmatlar to'plamlari hamda sotib olinayotgan Aloqa xizmatlari ro'yxatiga muvofiq o'z vaqtida va to'la hajmda to'lab borish.

6.2.5. Operatorga hujjatlar bilan tasdiqlangan Shaxsiy ma'lumotlarni, shuningdek xat-xabarlarni yetkazish uchun aniq pochta manzilini, bank rekvizitlarini, amalda yashayotgan manzilini, pochta indeksi ko'rsatilgan pochta manzilini, vaqtincha ro'yxatdan o'tgan manzilini, shuningdek Shartnoma ijro etilishi uchun kerakli boshqa ma'lumotlarni Shartnoma tuzilayotganda Operatorga zarur bo'ladigan hajmda taqdim etish.

Ushbu bandeda ko'rsatilgan ma'lumotlar o'zgargan taqdirda shunday o'zgarishlar kuchga kirgan sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kalendar kun mobaynida Operatorga yangi ma'lumotlarni yozma shaklda shaxsan taqdim etish.

Operator yangi ma'lumotlar to'g'risidagi axborotni olgan oydan keyingi oying birinchi kunidan e'tiboran, Aloqa xizmatlari Abonentning pochta manzili haqidagi yangi ma'lumotlardan foydalangan holda ko'rsatiladi.

6.2.6. SIM-karta yo'qolgani to'g'risida Operatorga darhol xabar berish.

6.2.7. SIM-kartada shifrlangan va Operatorning tijorat siri hisoblanuvchi axborotni uchinchi shaxslar ololmasligini ta'minlash, SIM-kartadagi shifrlangan ma'lumotlar bilan quyidagi xatti-harakatlarni amalga oshirmaslik hamda uchinchi shaxslarga ham bunday imkoniyatni bermaslik: axborotni o'zgartirish, chiqarib olish, nusxa ko'chirish, ko'paytirish, tarqatish, boshqa axborot tashish vositalariga o'tkazish, boshqa huquqqa qarshi xatti-harakatlar.

6.2.8. SIM-kartaning dublikatlarini tayyorlamaslik, shuningdek uchinchi shaxslar tomonidan shunday harakatlar sodir etilishiga yo'l qo'ymaslik. Abonent bu majburiyatni bajarmagan taqdirda, uning aybi bilan Operator va u bilan bog'liq shaxslar ko'rgan zararlarni Abonent to'lashga majbur bo'ladi.

6.2.9. Maxfiy so'z to'g'risidagi axborot oshkor etilmasligi va sir saqlanishini ta'minlash. Maxfiy so'z vositasida amalga oshirilgan har qanday xatti-harakat Abonentning o'zi – maxfiy so'z egasi tomonidan sodir etilgan hisoblanadi. Maxfiy so'zni tiklash, o'zgartirish yoki undan voz kechish uchun Abonent Operator ofisiga shaxsan murojaat qilishi shart. Maxfiy so'z bekor qilingan hollarda Abonentning shaxsni tasdiqlovchi hujjati asosida xizmat ko'rsatiladi.

6.2.10. Abonent raqamidan GSM shluzlarda foydalanilgan taqdirda vakolatli davlat organlari Abonent raqamidan GSM shluzlarda foydalanilgani uchun Operatorndan undirgan jarima summasi to'liq qoplanishi kerak.

7. Aloqa xizmatlarining tariflari va hisob-kitob qilish tartibi

7.1. Tarif rejalarining shartlari, Alohida xizmatlar to'plamlarining va boshqa Aloqa xizmatlarining tariflari, jumladan Alohida toifadagi abonent raqamini berish shartlari va tartibi, shuningdek radiotelefon orqali ulanish davomiyligi, Aloqa xizmatlari narxlari birligi hamda to'liqsiz narxlash birligi uchun haq to'lash tartibi Operator tomonidan mustaqil ravishda belgilanadi.

7.2. Tarif rejaları (Tariflar)ning shartlariga o'zgartishlar Operator tomonidan bir tomonlama tartibda kiritiladi. Bu haqdagi tegishli ma'lumot Operatorning veb-saytida yoki ommaviy axborot vositalarida joylashtiriladi yoxud Operator uchun maqbul bo'lgan boshqa usulda Abonentlarga yetkaziladi.

Tarif rejaları (Tariflar)ning ortishiga olib keluvchi o'zgartishlar tegishli axborot Operatorning veb-saytida joylashtirilganidan (e'lon qilinganidan) keyin 10 (o'n) kun o'tgach kuchga kiradi.

7.3. Aloqa xizmatlarining tariflari Operator tomonidan O'zbekiston Respublikasining milliy valutası – so'mda belgilanadi.

Ko'rsatilgan Aloqa xizmatlari uchun barcha to'lovlar (dastlabki bo'nak to'lovi, bo'nak to'lovlari, mavjud qarzni so'ndirish uchun to'lovlar) O'zbekiston Respublikasining milliy valutası – so'mda amalga oshiriladi va Abonentning Shaxsiy (elektron) hisobvarag'ida aks ettiriladi.

Aloqa xizmatlari uchun to'langan pul mablag'larini Abonentning Shaxsiy (elektron) hisobvarag'ida aks ettirish va ularni hisobdan chiqarish tartibi Operator tomonidan belgilanadi.

7.4. Aloqa xizmatlari qiymati aksiz solig'i va qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga oladi.

7.5. Abonent Operatorga quyidagi to'lovlarni amalga oshiradi:

7.5.1. Abonent to'lovi;

7.5.2. Operator tarmog'ida radiotelefon orqali chiquvchi ulanishlar va boshqa operatorlarning raqamlariga radiotelefon orqali chiquvchi ulanishlar;

7.5.3. ma'lumot uzatish tarmog'i bo'yicha ulanishlar (keyingi o'rinlarda – aloqa seanslari);

7.5.4. Roumingda radiotelefon orqali chiquvchi va kiruvchi ulanishlar;

7.5.5. chiquvchi SMSlar;

7.5.6. boshqa xizmatlar, shu jumladan Kontent-provayderlar va/yoki boshqa uchinchi shaxslar tomonidan Operator tarmog'i orqali taqdim etiladigan xizmatlar.

7.6. To'lov radiotelefon orqali ulanishlar/aloha seanslarining davomiyligiga hamda radiotelefon orqali ulanish/aloha seansining tegishli turiga qarab, Aloqa xizmatlarini ko'rsatish vaqtida amalda bo'lgan Tarif bo'yicha amalga oshiriladi.

7.7. Abonent Aloqa xizmatlari haqini quyidagi tartibda to'lash majburiyatini oladi:

a) Dastlabki bo'nak to'lovi Taraflar Ro'yxatga olish blankini imzolagan kundan boshlab 7 (yetti) kalendar kun mobaynida.

Dastlabki bo'nak to'lovi kiritilmasligi Abonent Shartnomani bajarishni rad etganligini bildiradi;

b) kelgusida Aloqa xizmatlarining haqi tanlangan Tarif rejasining shartlariga va Aloqa xizmatlaridan qanday hajmda foydalanish kutilayotganiga qarab, Bo'nak to'lovlarni kiritish yo'li bilan to'lanadi.

7.8. Abonent to'lov usulini mustaqil ravishda tanlaydi. Bu usullar quyidagicha bo'lishi mumkin: bank kassasiga naqd pul kiritish, To'lov kartasini faollashtirish, aholidan to'lovlarni qabul qilish vakolati berilgan To'lov agenti orqali, O'ziga o'zi xizmat ko'rsatish terminallari (infokiosklar) orqali, bankdan tashqari elektron (chakana) to'lovlar tizimlari vositasida, shu jumladan bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda to'lash.

7.9. Abonent foydalangan Aloqa xizmatlari hajmiga mutanosib miqdorda Operatorning AHKTda hisoblangan summalar, Abonent Aloqa xizmatlaridan foydalangani sayin, Operator belgilagan tariflarga muvofiq, Abonentning Shaxsiy (elektron) hisobvarag'idan yechib olinadi.

7.10. Abonentning Shaxsiy (elektron) hisobvarag'ida salbiy balans yuzaga kelganda Operator Abonentga Aloqa xizmatlari ko'rsatilishini to'xtatib turishga, jumladan davom etayotgan suhbatni uzib qo'yishga haqli.

7.11. Abonentning Shaxsiy (elektron) hisobvarag'idagi mablag'larni u foydalanayotgan Aloqa xizmatlari miqdorida darhol yechib olishning imkoni bo'lmaydigan hollarda foydalanilgan Aloqa xizmatlari uchun hisoblangan to'lovlar kechiktirilgan rejimda to'planadi. Agar Abonent Shaxsiy (elektron) hisobvarag'ining balansi to'plangan summalar qayta hisoblanganidan keyin salbiy ko'rsatkichga ega bo'lsa, Abonent Operator oldidagi bunday qarzdorlikni bahs-munozarasiz qarzdorlik deb tan oladi.

7.12. «Ushbu Syartnoma bekor qilingan taqdirda, foydalanilmagan va Abonentning Shaxsiy (elektron) hisobvarag'ida turgan summa Abonentning tegishli yozma arizasi olingan sanadan e'tiboran 60 (oltmish) ish kuni ichida Operator tomonidan naqdsiz shaklda quyidagi tartibda qaytariladi:

a) agar to'lovlar Shaxsiy (elektron) hisobvaraqqa Abonentning o'zidan tushgan bo'lsa – Abonentning bank hisobvarag'iga. Bunday hollarda Abonentning arizasida uning bank rekvizitlari to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan bo'lishi kerak;

b) agar Operator Abonentning Shaxsiy (elektron) hisobvarag'iga to'lovlar uchinchi shaxslardan tushganligini aniqlasa, u holda mablag'lar qoldig'i Abonentning Shaxsiy (elektron) hisobvarag'iga amalda pul tushirgan shaxslarga qaytariladi. Bunda Abonent Operatorga o'sha shaxslar tomonidan yozilgan va ularning bank rekvizitlari ko'rsatilgan arizani taqdim etishi zarur;

v) agar Operator Shaxsiy (elektron) hisobvaraqdan Abonent mablag'larni, jumladan uchinchi shaxslardan olingan mablag'larni to'plash ("elektron hamyon") uchun foydalanayotganligini aniqlasa, Operator quyidagicha ish tutishga haqli:

- mazkur shartnomani ijro etish bilan bog'liq o'z xarajatlarini qaytarilishi kerak bo'lgan summadan uning 4% miqdorida (bank xarajatlari, to'lov agentlarining xizmatlari uchun xarajatlarni) ushlab qolish. Operator o'zining bank va to'lov agentlarining xizmatlari bo'yicha chiqimlari o'zgarishiga qarab, ushlanma miqdorini o'zgartirishi mumkin;

- Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida" 26.08.2004 yildagi 660-II sonli O'zR Qonuniga muvofiq tegishli tekshiruv o'tkazish uchun maxsus vakolatli organga so'rovnoma yuborish.

Ushbu bandning b) kichik bandida belgilangan uchinchi shaxslar kiritgan mablag'larni qaytarish qoidalari shu kichik bandda aytib o'tilgan shartnomalarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Abonentning Shaxsiy (elektron) hisobvarag'ida qolgan (sarflanmagan) summa O'zbekiston Respublikasining milliy valutasida – so'mda qaytariladi.

Shartnoma bekor qilinadigan hollarda:

a) Operator tarmog'iga kirish imkoni berilgani uchun to'lov qaytarilmaydi;

b) o'tkazilayotgan aksiyalar doirasida Operator tomonidan taklif qilingan bonuslar pul ekvivalentida to'lanmaydi;

v) sotib olingan, lekin faollashtirilmagan To'lov kartalarining nominali pul ekvivalentida to'lanmaydi;

g) Abonent qurilmasi Operator tomonidan sotib olinmaydi;

d) agar Alohida toifadagi abonent raqami olingan bo'lsa, bunday raqamni tanlash xizmati uchun to'langan mablag' qaytarilmaydi.

7.13. Abonent Operator bilan tuzilgan Shartnoma amal qiladigan muddat mobaynida Operatorga yozma ravishda murojaat qilib, foydalanilgan Aloqa xizmatlari hamda Shaxsiy (elektron) hisobvaraqdan sarflangan mablag'lar haqidagi batafsil ma'lumotlarni Operator belgilagan tariflar bo'yicha olishga haqli.

Shaxsiy (elektron) hisobvaraqdagi sarflanmagan pul mablag'lari to'g'risida ma'lumot Abonentga bepul beriladi.

7.14. Abonent Shartnoma shartlariga muvofiq ko'rsatilgan, lekin haqi to'lanmagan Aloqa xizmatlari uchun Operator tomonidan hisoblangan barcha summalarni so'zsiz e'tirof etadi.

7.15. Abonentning Aloqa xizmatlari haqini to'lash borasidagi majburiyatlari bajarilishini ta'minlash maqsadida uchinchi shaxs (kafil) bilan kafillik shartnomasi (Operator tasdiqlagan namunaviy shaklda) tuzilishi mumkin. Bu Shartnomaga ko'ra, uchinchi shaxs (kafil) Abonentning Aloqa xizmatlari haqini to'lash borasida Operator oldidagi majburiyatlari bo'yicha javob berish majburiyatini oladi. Operator va Abonentning kafil bilan munosabatlari kafillik shartnomasi shartlari hamda kafillik to'g'risida amalda bo'lgan qonun hujjatlari normalariga muvofiq tartibga solinadi.

7.16. Abonent Operator uning Shaxsiy (elektron) hisobvarag'idagi mavjud pul mablag'larini Abonentning boshqa barcha Shaxsiy (elektron) hisobvaraqlaridagi qarzdorlikni so'ndirish uchun yoki avvalgi Shartnomalar bo'yicha mavjud qarzdorlikni so'ndirish uchun chiqarib olishiga o'z roziligini beradi.

8. Taraflarning javobgarligi

8.1. Operator Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim tarzda bajarmagan taqdirda, Abonentning talabiga ko'ra, Abonent talab qilgan sanadan boshlab 20 kundan kechikmay, kamchiliklarni bepul bartaraf etishi shart.

8.2. Abonent SIM-kartani yo'qotib qo'ygan taqdirda (yo'qotsa, o'g'irlatsa va boshqa hollarda) toki Operator Abonentdan SIM-karta yo'qolgani va unga xizmat ko'rsatish tartibi to'g'risida yozma ariza olguniga qadar, yo'qolgan SIM-kartadan foydalanish bilan bog'liq Aloqa xizmatlari haqini to'lash majburiyati Abonent zimmasida bo'ladi. Toki Operator SIM-karta yo'qolgani to'g'risida xabardor qilinguniga qadar, Abonentning yo'qolgan SIM-kartasi bilan bajarilgan barcha xatti-harakatlar Abonent nomidan sodir etilgan hisoblanadi.

8.3. Abonent telekommunikatsiya sohasidagi faoliyatni tartibga soluvchi talablar va normalar, ushbu Shartnoma shartlari buzilgani, shu jumladan Operatorning SIM-kartasi GSM-shluzlarga ulangani uchun javobgar bo'ladi. Bunday hollarda Abonent Operatorga yetkazilgan zararni to'lashi shart.

Abonent raqamidan GSM-shluzlarda foydalanilgan taqdirda vakolatli davlat organlari Abonent

raqamidan GSM-shluzlarda foydalanilgani uchun Operatoridan jarima undirgan taqdirda Abonent jarima summasini Operatorga to'lab berishi kerak.

8.4. Operator Abonentning Shaxsiy ma'lumotlari to'g'risidagi axborotdan foydalanish tartibi buzilgan holatlar uchun amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan tarzda javob beradi.

8.5. Tariflardagi o'zgarishlar to'g'risida Shartnomada ko'zda tutilgan tartibda Operator tomonidan tarqatilgan ma'lumotni Abonent olmagan, shuningdek Operator yuborgan xatlar, e'tiroznomalar va boshqa hujjatlar Operatorga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra Abonentga yetib bormagani uchun Operator javobgar bo'lmaydi.

8.6. Abonent olinmay qolgan foyda tarzida ko'rgan zarar qoplanishi uchun Operator javob bermaydi.

8.7. Abonent tomonidan oldindan berilgan buyurtma asosida Operatorning tarmog'i orqali kontent-provayder tarqatadigan kontent yetkazib berilmagani yoki kechikib yetkazib berilgani, uning mazmuni va sifati uchun Operator javobgar bo'lmaydi.

9. E'tirozlarni ko'rib chiqish va nizolarni hal etish tartibi

9.1. Operator ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim tarzda bajarmagan hollarda Abonent Operatorga yozma e'tiroz bildirishi mumkin. Bu e'tiroznomaga uni ko'rib chiqish uchun zarur hujjatlar, jumladan Operator o'zining shartnomaviy majburiyatlarini buzganligini tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilinishi kerak.

9.2. Abonent Aloqa xizmatlaridagi kamchiliklar bilan bog'liq o'z e'tirozlarini shunday xizmatlar ko'rsatilgan sanadan boshlab 6 (olti) oydan kechikmay taqdim etishi lozim.

9.3. Operator e'tiroznoma olingan kundan boshlab o'ttiz kunlik muddat ichida unga javob qaytarishi shart. E'tiroznomaga javob buyurtma yoki qimmatbaho xat bilan, telegraf, teletayp orqali, shuningdek u jo'natilgani qayd etilishini ta'minlovchi boshqa aloqa vositalaridan foydalangan holda yuborilib, bu haqda Abonentga xabar beriladi yoxud Abonentga topshirilib, bu haqda undan tilxat olinadi.

9.4. Uchinchi shaxslar Operator tarmog'iga ruxsatsiz kirish yo'li bilan Aloqa xizmatlaridan foydalanishi natijasida kelishmovchiliklar yuzaga kelgan taqdirda Operator telefon so'zlashuvlari kim tomonidan amalga oshirilganligini aniqlash uchun belgilangan tartibda ichki texnik tekshiruv o'tkazish huquqiga ega.

9.5. Ushbu Shartnomaning ijrosi bilan bog'liq barcha nizolar va kelishmovchiliklarni Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga hamda ushbu Shartnoma shartlariga muvofiq hal qiladilar.

Taraflar o'zaro kelishuvga erisholmagan nizolar va kelishmovchiliklar Operator tanlagan sudlarda yoki Operator joylashgan manzildagi sudlarda yoxud Abonent joylashgan manzildagi sudlarda yoki hakamlik sudida ko'rib chiqiladi.

Sudga murojaat qilishdan oldin suddan oldingi e'tiroz bildirish tartibiga rioya etilishi shart.

10. Boshqa shartlar

10.1. Ushbu Shartnomada ko'zda tutilmagan barcha holatlarda Taraflar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga tayanadilar.

10.2. Taraflar ushbu Shartnomani bajarish bilan bog'liq yoki undan kelib chiquvchi barcha xabarlar, bildiruvnomalarni bir-birlariga Shartnomada va Ro'yxatga olish blankida ko'rsatilgan manzillar bo'yicha yuborishlari kerak.

10.3. Ushbu Shartnoma matni o'zbek tilida tuzildi.

11. Operator manzili va bank rekvizitlari

«UMS» MChJ

O'zbekiston Respublikasi,

100000, Toshkent sh., Amir Temur shoxko'chasi, 24.

H/r:20214000300381984001,

Bank: AT "ALOQABANK" Operatsion boshqarmasi

Bank kodi: 00401, STIR:303020732.

20__ yil "___" _____dagi Mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma bo'yicha
Ro'yxatga olish blanki

20__ yil "___" _____

_____ sh.

Abonent raqami 99897 _____

Abonent (jismoniy shaxs) to'g'risida axborot

F.I.Sh.			Tug'ilgan sanasi	
Propiskadan o'tgan manzili:				
Ro'yxatdan o'tgan manzili:				
Fuqaroligi:			Aloqa uchun telefon	
Shaxsni tasdiqlovchi hujjat (seriyasi, raqami):		Kim tomonidan, qachon berilgani:		
Jinsi:		Maxfiy so'z:		

Abonent ro'yxatga olinayotganda ulangan qo'shimcha xizmatlar

Tariflanadigan xizmatlar	Tariflanmaydigan xizmatlar
<Tariflanadigan davriy xizmatlar ro'yxati>	<Tariflanmaydigan davriy xizmatlar ro'yxati>
Xizmat ko'rsatiladigan tarif rejasi: _____	
To'lovnomani yetkazib berish usuli: ofisdan shaxsan olinadi.	

- Ushbu Ro'yxatga olish blankini imzolash orqali Abonent "Universal Mobile Systems" MChJ bilan mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatish to'g'risida Shartnoma tuzadi (keyingi o'rinlarda "Shartnoma"). Abonent Shartnoma mazmunini tushundi, uning barcha shartlarini biron-bir qisqartirish va/yoki cheklolarsiz to'la-to'kis va so'zsiz qabul qiladi.
- Abonent tanlangan Abonent raqami/Alohida toifadagi abonent raqami bo'lgan SIM-kartani oldi. **Abonent SIM-kartani foydalanish uchun uchinchi shaxslarga berishga haqli emas.**
- Ushbu Ro'yxatga olish blanki Shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.
- Ushbu Ro'yxatga olish blanki bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada, har bir Taraf uchun bittadan to'ldirildi.
- Abonent Shartnomaning taqdim etilgan aloqa xizmatlaridan GSM-shluzlar (aloqa operatorining uskunalari chetlab o'tib, kiruvchi qo'ng'iroqlarni qayta yo'naltirish uchun mobil operatorning tarmog'iga ulanuvchi mobil qurilma) tashkil qilishda foydalanilganlik yoki SIM-karta GSM-shluzlarda foydalanish maqsadida uchinchi shaxslarga berish mumkin emasligi to'g'risidagi qismi buzilgani uchun ma'muriy hamda jinoiy javobgarlikka tortilishi (**Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi O'zR kodeksining 155-2-moddasi, O'zR JKning 190, 278-1, 278-3, 278-7-moddalari**), shuningdek bu talab buzilishi oqibatida vakolatli davlat organlari Operatorga jarima solgan taqdirda bu zararni qoplashga majbur bo'lishi to'g'risida xabardor qilindi.

Operator identifikatsiya maqsadida fotosuratga olish uchun Veb-kameradan foydalanishiga

Roziman
 Noroziman

ABONENT / _____/
(imzo)

OPERATOR / _____/
(imzo)
201__ yil «__» _____dagi ____ sonli ishonchnoma

/ _____/
Abonentning F.I.Sh. (so'z bilan)

M.O'.

Abonentning shaxsi aniqlandi. Ro'yxatga olish blankida ko'rsatilgan axborot Abonentning shaxsini tasdiqlovchi hujjatdagi ma'lumotlarga mos keladi va to'g'ri.

Operator xodimi: _____
(F.I.Sh.)

/ _____/
(imzo)

Sana 201__ yil «__» _____